“DOIRA CHOLG’USINING PAYDO BO’LISH TARIXI”

Abdirahmonov Erali Erkinovich
Navoiy Davlat Pedagogika institute “Musiqa ta’limi” yo’nalishi
2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7894543

Annotatsiya: Musiqa kishilar ko‘nglining eng nozik torlarini chertib, ularning har birining o‘zigagina xos bo‘lgan his-tuyg‘ularini uyg‘otib, ma’naviy go‘zallikka, mehr-muhabbatga undashi va bunda doira cholg’u asbobining o’rni, tuzilishi, kelib chiqish tarixi haqida so’z boradi. Doira O’zbek musiqasida juda katta ahamiyatga egaligi, o’rni haqida fikr yuritilgan.
Kalit so`zlar: doira, musiqa, san’at, madaniyat, o`zbek, childirma, bayram, cholg’u.

Musiqa sohasida, O’rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o’zbek usullari, ya’ni ritmik yo’llari va ularning rivojlanish usullari alohida o’rin egallaydi. Chalish usullar qoida bo’yicha urib chalinadigan musiqa asboblari ijrosida qo’llaniladi. Eng ko’p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblaridan, O’zbekistonda, Tojikistonda va Uyg’ur xalqlarida va shu bilan bir qatorda, Sharqda o’zining shirali ovoziga ega bo’lgan, musiqa cholg’u asbobi doira hisoblanadi. Doira iborasi ba’zan «Dapp», «Childirma», «Chirmanda» deb ham yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochini esa "Dappchi"-childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doiradast, Farg’onada chirmandachi, Samarqanda esa doirachi deb yuritiladi.

O’zbek xalqi qadimdan doira asbobini juda ardoqlab kelgan. O’tmishda bu asboblarning sadolari ostida xalqni maydonlarga, to’y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayllarga chaqirganlar. Jumladan: "Hosil bayrami", "Uzum sayli", "Qovun sayli" va shunga o’xshash kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay va nog’ora, doira kabi urma zarbli musiqa cholg’ulari keng qo’llanilgan. Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi, xalq cholg’ularini o’rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa, al-kabir") ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi. O’rta asr olimi bu kitobdan ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo’shiq san’ati) va cholg’ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi.

Doira- childirma, chirmanda yumaloq shakldagi o‘zbek va tojik urma musiqa cholg‘usi. Uning asosiy qismi (gardishi) tok zangi, so‘nggi yillarda klyon (zarang), akatsiya, lo‘lilarda tol daraxtlaridan ishlanadi. Gardishning tashqi tomoniga buzoq, toy yoki echkining oshlangan terisi qoplanadi. Ichki tomoniga esa ma’dandan ishlangan halqachalar osiladi. Gardish diametri 400—

510 mm ni tashkil etadi. Doirada tovush ikki qo‘l barmoqlari yordamida hosil qilinadi. Undan yakka ijroda («Katta o‘yin», «Shodiyona» kabi yirik turkum asarlarda) hamda turli xil milliy cholg‘u ansambllarida jo‘rnavoz cholg‘u sifatida foydalaniladi. Doira qadimiy musiqa cholg‘ularidan hisoblanadi. Markaziy Osiyoda topilgan terrakota yodgorliklarida doirachi ayollar tasvirlangan. 20-asrda o‘zbek doira ijrochilik an’analarini Usta Olim Komilov, T. Inog‘omov, D. Sottixo‘jayev, R. Isoxo‘jayev, F. Azimov, Q. Dadayev, O. Kamolxo‘jayev, aka-uka Islomovlar, M. Oripov, R. Otaboyev, T. Sayfiddinov, R. Samadov va boshqalar tanigan. Doira va unga yaqin urma musiqa cholg‘ulari tojik, arman, ozar, uyg‘urlarda — dap, dapp, daff, def deb nomlanadi.

Doira qadimiy musiqa cholg’ularidan hisoblanadi. Markaziy Osiyo (Niso shahri, eramizdan avvalgi 2-asr)da topilgan terrak ota yodgorliklarida doirachi ayollar tasvirlangan. Doira va unga yaqin urma musiqa cholg’ulari tojik, arman, ozarbayjon, uyg’urlarda dap, dapp, daff, def deb nomlanadi. 20-asrda o’zbek doira ijrochilik an’analarini Usta Olim Komilov, T. Inog’omov, D. Sottixo’jayev, Rahim Isoxo’jayev, F. Azimov, Qahramon Dadayev, O. Kamolxo'jayev, aka-uka Islomovlar, M. Oripov, R. Otaboyev, T. Sayfiddinov, R. Samadov va boshqalar mukammallashtirgan.

Doiraning asosiy qismi (gardishi) tok zangi, so’nggi yillarda zarang, akatsiya, lo’lilarda tol daraxtlaridan ishlanadi. Gardishning tashqi tomoniga buzoq, toyyoki echkining oshlangan terisi qoplanadi. Ichki tomoniga esa tamburinnikiga o’xshash ma’dandan ishlangan halqachalar osiladi. Doiraning halqasiz turlari ham mavjud. Gardish diametri 400—510 mm ni tashkil etadi. Doirada tovush ikki qo’l barmoqlari yordamida hosil qilinadi. Undan yakka ijroda hamda turli xil milliy cholg’u ansambllarida jo’rnavoz cholg’u sifatida foydalaniladi.

Doirani chalishda qo’llaniladigan ritm birliklari (naqralar) haqida qadimiy manbalarda yozilgan. Doira usuli odatda ikki xil zarbdan iborat. Biri —bak(baka, bako, bakka, bakko). Bak doira gardishiga yaqin joyga urilganda chiqadigan tovushdir. Ikkinchi zarb —bum. Bumni chalish uchun barmoqlarni cho’zib doiraning o’rtaroq qismiga uriladi.

Doira Xalq cholg’u asboblarinnng paydo bo’lish tarixi uzoq o’tmishga borib taqaladi. Musiqachilikda dastlab **urma zarbli** cholg’ular paydo bo’lgan. Bular nog’ora, chindovul, childirma, dovul va doiralardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doira cholg’u asbobi o’zgarmagan holda saqlanib kelmoqda.

Musiqa sohasida, O’rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o’zbek usullari, ya’ni ritmik yo’llari va ularning rivojlanish usullari alohida o’rin egallaydi. Usullar

qoida bo'yicha urib chalinadigan musiqa asboblari ijrosida qo'llaniladi. Eng ko'p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblaridan, O'zbekistonda, Tojikistonda va Uyg'ur xalqlari, shu bilan bir qatorda, Sharqda o'zining shirali ovoziga ega bo'lgan, musiqa cholg'u asbobi doira hisoblanadi.

O'zbek xalqi qadimdan doira asbobini juda ardoqlab kelgan. O'tmishda bu asbob sadolari ostida xalqni maydonlarga, to'y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayllarga chaqirganlar. Jumladan: «Hosil bayrami», «Uzum sayli», «Qovun sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan.

Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay va nog'ora, doyra kabi urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Laylo B. Umurzakova Bakhtiyor N. Umurzakov
2. "THE USE OF GAMING TECHNOLOGIES IN THE MUSICAL EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS".
3. Ходжабаева Зухра Парамановна "ФОРМИРОВАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО И ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ". 2023.
4. Umurzoqov Baxtiyor Nashmanovich "MUSIQA SAN'ATI VA UNING BIZNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI"
5. Laylo Umurzoqova Baxtiyorovna "Роль культуры в человеке и обществе''. 2021y
6. Umurzakov, B. N., & Umurzakova, L. B. (2022). THE USE OF GAMING TECHNOLOGIES IN THE MUSICAL EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(03), 13-16.
7. www.google.ru
8. www.ziyonet.uz
9. www.lex.uz